

Rangtasvir janrlari



Rangtasvir – tasviriy san’at turlaridan biri. Rangtasvirchi rassom suratlarni bo’yoq va mo’yqalamlar yordamida yaratadi. Rangtasvirda eng asosiysi – **rang**. U rassomga surat kayfiyatini ko’rsatib berishda yordam beradi.

Rassom **Sergey Galetaning** suratlariga diqqat bilan qarang. Rassom ranglar yordamida kayfiyatni qanday tasvirlaganiga e’tibor bering.



“Lolaqizg’aldoqlar”

Yorqin ranglar ilqlik, shodlik va quyosh nuri hissini uyg’otadi.



“Yoz ohangi”

Sovuq va to’q tuslar suratni xotirjam va o’ychan qilib ko’rsatadi.




“Nastarin”


Nozik tuslar kishiga soflik, yengillik va osoyishtalik baxsh etadi.

Janr – suratning mavzusi yoki mazmuni. Janr suratda nima tasvirlanganini tushunishga yordam beradi.

Manzara – tabiat tasviri. Bunday suratlarda tog’, o’rmon, daryo, dala, osmon va daraxtlar tasvirini ko’rish mumkin.



Dilorom Mamedova.
“Gullar vodiysi”



Dilorom Mamedova.
“Kuzning oltin ranglari”

Natyurmort – meva, gul, idish-tovoq, kitob, o'yinchoq, musiqiy cholg'u kabi buyumlarning tasviri.



Sergey Galeta. "Sharqona natyurmort"

Portret – inson tasviri. Portret insonning tashqi ko'rinishi, kayfiyati va xarakterini ko'rsatib bera oladi.



Dilorom Mamedova.
"O'zbek malikasi"




Pyer Ogyust Renuar.
"Mademuazel Iren Kaen
d'Anver portreti"

Animalistik janr – hayvonlar tasviri. Hayvonlarni tasvirlaydigan rassomni animalist deb atashadi.



Robert Beytman.
“Qizilishton”



Dilorom Mamedova.
“Qaldirg'och”

Maishiy janr – odamlar hayoti: ularning qanday ishlashi, o'qishi, dam olishi va o'ynashi haqidagi tasvir.




Pavel Benkov. “Dugonalar”

Tarixiy janr – o'tmishdagi voqealar tasviri.



Dilorom Mamedova.
"Buxoro sukunati qo'riqchisi"




Dilorom Mamedova.
"O'tgan kunlar"



Surat tomosha qilayotganda quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:

- Suratda nima tasvirlangan?
- Rassom qaysi ranglardan foydalangan?
- Suratda qanday kayfiyat tasvirlangan?
- Sizga ko'proq nima yoqdi?



Yodda tuting!

Agar suratda:

- tabiatni ko'rsangiz, bu – **manzara**;
- insonni ko'rsangiz, bu – **portret**;
- buyumlarni ko'rsangiz, bu – **natyurmort**;
- hayvonlarni ko'rsangiz, bu – **animalistik janr**;
- odamlarning kundalik hayotini ko'rsangiz, bu – **maishiy janr**;
- o'tmish voqeasini ko'rsangiz, bu – **tarixiy janr**.



Doira ichidagi kuz manzarasi



Kuz manzarasini noodatiy usulda – **g'ijimlangan qog'oz izlari** yordamida yarating. Bunday izlar xuddi paxmoq kuzgi barglarga o'xshab qoladi.


Sizga kerak bo'ladi:

akvarel qog'ozi, guash, bir martalik likopcha, printer qog'ozi, paxtali cho'plar, qog'oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Doira tayyorlang.** Akvarel qog'oziga diametri 18–20 cm bo'lgan doira chizing va uni qirqib oling.
2. **Izlar tushiring.** Printer qog'ozini 4 bo'lakka bo'ling. Bir bo'lagini g'ijimlang. Uni sariq rangli guashga botirib, doiraning chetlari bo'ylab izlar tushiring. Doiraning o'rtasini oqligicha qoldiring. Paxtali cho'plar yordamida to'q sariq va qizil rangli izlar qo'shing.
3. **Daraxtlar chizing.** To'q jigarrang flomaster yoki jigarrang guash bilan ingichka mo'yqalam yordamida doiraning chetlaridan markazga qarab daraxt tanalari va shoxlarini chizing.
4. **Qushlar qo'shing.** Doiraning oqligicha qolgan o'rta qismiga qora flomaster yordamida kichkina qushchalarni chizib qo'ying.

1




2



3



4



5

